



## SPEECH CULTURE IS A MAIN CRITERIA OF EDUCATION

Rahimova Charos Odiljonovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Student of the Uzbek State University of World Languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4768620>

### ARTICLE INFO

Received: 5<sup>th</sup> May 2021  
Accepted: 10<sup>th</sup> May 2021  
Online: 15<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

Speech culture, speech education, word power, means of communication, speech technique, rhetoric, speech etiquette

### ABSTRACT

*It is well known that the etiquette of speech, the culture of communication, the interaction - in humans is done through speech. The article describes the concept of speech in educating young people of all modernity in the field of speech culture education, the culture of speech and the power of speech to convey them to the people around them and bring it to the state of speech. The process of reading a scientific article is to live in the environment through words and to make a creative impact and to translate words in their own environment to get beautiful words, providing artistic, psychological and technical services.*

## NUTQ MADANIYATI – TA'LIMNING ASOSIY ME'ZONIDIR

Rahimova Charos Odiljonovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021  
Ma'qullandi: 10-May 2021  
Chop etildi: 15-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

Nutq madaniyati, nutqiy tarbiya, so'z qudrati, muomala vositasi, nutq texnikasi, badiiy so'zlar, nutq odobi

### ANNOTATSIYA

*Ma'lumki, so'zlashish odobi, muomala madaniyati, o'zaro munosabatlar – insonlarda nutq orqali yuzaga keladi. Maqolada nutq madaniyati bo'yicha ta'lim sohasidagi barcha yo'nalishdagi o'quvchi yoshlarga tarbiya berishda nutq haqida tushuncha, nutq madaniyati va atrof-dagi insonlarga ularni yetkazib berishda so'z qudrati va uni nutq holatiga keltirish haqida bayon etilgan. Ushbu ilmiy maqolani o'qish jarayonida atrof-olamga so'z orqali ijobiy va ijodiy ta'sir o'tkaza olish va chiroyli so'zlay olish uchun so'zni o'z o'rnida qo'llay olish, badiiy, psixologik va texnik tomonlama ko'rsatib o'tilgan.*

Insoniyat qadim zamonlardan so'z va nutqdan foydalanib keladi. Jamiyat taraqqiy etgani sayin, nutq madaniyati va notiqlik san'ati ham rivojlanib borgan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz so'z mahoratini yuksak darajada olib chiqqanlarini yaxshi bilamiz.

Insonning nutqiy faoliyati uch ko'rinishga amal qiladi.

### Bular:

1. So'zlash
2. Muomala
3. Eshitish.



So'zlash deyilganda so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum narsalar haqida so'rashi anglatiladi. So'zlaganda so'zlovchinning bilimi, madaniyati, ahloq-odobi yuzaga chiqadi. Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqidan aks etgan voqea-xodisalardan xabardor bo'ladi, ular ta'sirida xulqida qandaydir o'zgarish paydo bo'ladi. Mutolaa ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kishi o'qish orqali ma'naviy yetuklikka erisha boradi. Kishining odobi eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi.

Eshitish esa insonning eng yuksak madaniyatini ochib beruvchi omildir. Eshita olgan inson ma'lumotlarni tahlil qila oladi, eshita olgan inson ikkinchi shaxsni o'rgana oladi, eshita olgan inson munosabat o'rnata oladi. Eshitish – nutq madaniyatining eng asosiy va birlamchi ustunlaridan biridir.

Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazishi tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna bu o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-ahloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi.

Tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, «Assalomu alaykum» ning javobi «Vaalaykum assalom» dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham to'mtoqlashib ketdi, ya'ni salom berish uchun ham, alik olish uchun ham «salom» so'zi ishlatiladigan bo'ldi. Bu tarixiy an'analarimizdan chetlashishdir.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi zarur. O'z aybi uchun kechirim so'rash, o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. «Kechirasiz, mendan o'tibdi» yoki «Avf eting, bundan so'ng takrorlanmaydi» deyish bilan kishi o'zining odobliligini namoyish etadi, xolos.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Tilning madaniyati deyilganda, uning so'z boyligi, sintaksizning taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutqning madaniyati uning aloqaviy fazilatlarini yig'indisi va tizimi bo'lib, ular til madaniyati til faoliyatida qiynalmaslik, matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq.



Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash ikki bosqichda amalga oshadi.

## **1- bosqich - til vositalarini bilish**

## **2- bosqich – til sistemasini nutq tezkorligiga aylantirish**

Birinchi bosqich - bu nutqni tinglaganda unda ishlaydigan til vositalarining ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi, ya'ni, tinglovchi tinglash orqali o'qigan narsalarini tushunadi. Bunday shaxs o'zgarlar nutqini yaxshi tushunadi. Ammo o'zining nutqi tilning rang-barang imkoniyatlaridan mahrum, qoshshoq bo'ladi.

Ikkinchi bosqich bu - til sistemasini taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtiradi, ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishdan iboratdir. Bunga erishgan shaxsning nutqi ravon, boy, obrazli, o'rinni bo'ladi. 1-bosqichda anglab olingan nutq vositalari ustida doimiy mashq qilish, ularni xotirada saqlashga doimo e'tibor berish, bu imkoniyatlarni nutqiy tezkorlikka aylantiradi.

Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq va ta'sirchan tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning yig'indisi bo'lib, tilda mavjud bo'lgan, uning imkoniyatlaridan kelib chiqadigan xilma xil ifoda vositalaridan fikr uchun eng ma'qullarini tanlay bilish va shu asosda go'zal nutq tuza olish mahorati hisoblanadi. Nutqning madaniyligi to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ifodaliligi, boyligi, sofligi kabi bir qator kommunikativ sifatlarga asoslanadi. Bu sifatlarni nutqiy aloqani ta'minlash bilan birga tinglovchi yoki o'quvchiga nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sirini kuchaytiradi. Nutqning to'g'riligi Madaniy nutqning adabiy til me'yorlari (talaffuz, so'z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy me'yorlar)ga qat'iy mosligi nutqning to'g'riligi sanaladi. Nutqning to'g'riligi quyidagilarga asoslanadi:

— til birikmalarini to'g'ri, ifodali talaffuz qilish,

— so'z va mantiqiy urg'u, ohang, pauzaga e'tibor berish;

— fikrni tushunarli, mazmunli ifodalovchi so'z, atama va birikmalarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida qo'llash;

— so'zlarni variantlik, ma'nodoshlik imkoniyatlaridan foydalanishda tinglovchining mafkurasi, dunyoqarashi, madaniy saviyasini hisobga olish;

— qo'shimchalarni to'g'ri ishlatish, morfologik shakllarning ko'p ma'noligini nazarda tutish, ularning ortiqchaligi, takroriyiligiga yo'l qo'ymaslik;

— so'zlarning o'zaro birikish qonuniyatlariga amal qilish, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish;

— so'zlarni imlo qoidalariga ko'ra to'g'ri yozish va shu kabilar.

Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarining amaliy ifodasidir. Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda



teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi.

Mutaxassislarining aytishicha, nutq madaniyati insonning ijodiy va mustaqil fikrlash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda ravon bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa pedagogik faoliyat

bilan shug'ullanuvchi kasb sohiblarining notiqlik mahorati yuqori bo'lishi kerak. O'qituvchining jarangdor ovozi, o'ziga jalb eta olish qobiliyati, mavzularni aniq va ifodali tushuntirishi mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashishda ishlatiladigan «Xayr, sog' bo'ling», «Xayr, ko'rishguncha», «Xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda «Xayr, sog' bo'linglar», «Xayr, yaxshi qolinglar» iborasini ishlatsa, o'rinli bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A. Karimov Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. «Sharq» 1997.
2. Islom Karimov, «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan.
3. Muomala trentingi T. O'z MU 1994.
4. Muhiddinov A.G. O'quv jaranida nutq faoliyati. T. O'qituvchi 1995.
5. Rajabov S. Mutaxassislikka kirish T. «O'qituvchi» 1991.
6. Rasmiy va norasmiy uchrashuvchilar odobnomasi T. «Adolat» 1992.
7. Saidnazarov F, Saidnazarov I, Tarbiya, odob, va oqibat T. «O'zbekiston»
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari T. «O'qituvchi» 1993 yil
9. E.G'oziev «Muloqot psixologiyasi» Toshkent 1990.